



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIIY TILSHUNOSLIK VA AMALIYOTI MASALALARI

ICHIMLIK NOMLARINING ETNOLINGVISTIK IFODALANISHI

Nurova Yulduz Ubaydullayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya (Abstract) Etnolingvistika nisbatan yangi fan bo'lib, ba'zida yangi gumanitar bilim sohalariida sodir bo'lgani kabi uning predmeti va qamrov doirasi hanuz aniq belgilanmagan, ya'ni voqelikning qanday elementlarini o'rganishi mavhumligicha qolmoqda. Shu ma'noda aytish mumkinki, etnolingvistika – bu tutashuvdagi fan. So'nggi o'n yilliklarda bilimning bunday chegaraviy sohalari ko'plab paydo bo'ldi, "tutashuvdagi fanlar"ning yuzaga kelishi hozirgi zamon fanining ham gumanitar, ham tabiiy fanlariga xos xususiyatdir. Etnolingvistika xalq hayotining ruhiy, madaniy, etnik xususiyatlari va ularning tilda aks etishini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: etnolingvistika, etnos, tilshunoslik, chora, surpa, bo'ryo, xurmacha, mo'ndi, madaniyat, etnolingvistika, maqol.

Аннотация. Этнолингвистика-относительно новая наука, и ее предмет и сфера применения, как это иногда бывает в новых областях гуманитарного знания, еще не определены, т. е. остается неясным, какие элементы действительности она изучает. В этом смысле можно сказать, что этнолингвистика – это наука на стыке. В последние десятилетия появилось много таких пограничных областей знания, возникновение "наук на стыке" является характерной чертой как гуманитарных, так и естественных наук современности. Этнолингвистика-это направление лингвистики, изучающее духовные, культурные, этнические особенности жизни народа и их отражение в языке.

Ключевые слова: этнолингвистика, этнос, лингвистика, название масла, продукт, язык, культура, этнолингвистика, пословица.

Annotation. Ethnolinguistics is a relatively new science, and its subject and scope, as is sometimes the case in new fields of humanities, have not yet been determined, i.e. it remains unclear which elements of reality it studies. In this sense, we can say that ethnolinguistics is a science at the junction. In recent decades, many such borderline fields of knowledge have appeared, the emergence of "sciences at the junction" is a characteristic feature of both the humanities and natural sciences of our time. Ethnolinguistics is a branch of linguistics that studies the spiritual, cultural, and ethnic characteristics of the life of a people and their reflection in language.

Keywords: ethnolinguistics, Ethnos, linguistics, Oil name, product, language, culture, ethnolinguistics, proverb.

Kirish (Introduction). Etnolingvistika mustaqil fan tarmog'i sifatida XIX-XX asrlarda shakllandi va XIX asrning 70-yillaridan boshlab Amerika Qo'shma Shtatlarida rivoj topdi. Jahon tilshunosligida ijtimoiy-madaniy omillarning tilga ta'siri masalalari Dell Xayms, G.M.Xyonigsvald singari olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, Rossiyada muammoning o'rganilishi Fyodor Ivanovich Buslayev, Aleksandr Nikolayevich Afanasev, Aleksandr Afanasevich Potebnya nomlari bilan bog'lanadi.

Etnolingvistika (jahon tilshunosligida antropologik lingvistika) "madaniy antropologiya" (lot. anthropos – odam) deb atalmish fanning mustaqil bir yo'nalishi bo'lib; til, folklor, etnografiya, tarix, madaniyatshunoslik, badiiy adabiyot, psixologiya va boshqa gumanitar fanlar qatorida yuzaga kelgan. Fanning mustaqil sohasi sifatida etnolingvistika "o'zining negizida, asosan, madaniyatni har tomonlama o'rganuvchi etnografik, lingvistik, arxeologik xususiyatlarni shakllantirgan, bugungi kunda muayyan xalqning urf-odatlarini, etnomadaniyatini lingvistik birliklar asosida o'rganuvchi mustaqil yo'nalishdir.

Lingvistikaning tarkibiy qismi sifatida XX asrning boshlarida fan sohasiga kirib kelgan etnolingvistika amerikalik olim etnograf Frans Boas va Eduard Sepir nomi bilan bog'langan bo'lib, Eduard Sepir amerikalik hindularning yozma an'ana va madaniyatidan mahrum bo'lgan

tillarini o'rgandi. Eduard Sepir etnolingvistika va tilshunoslikning o'zaro bog'liqlik tomoniga alohida to'xtalib: "Til – jamoaning sof tarixiy merosi, uzoq muddatli ijtimoiy foydalanish mahsulidir, unda xalqning etnik mahsuli hisoblanmish urf-odatlar, san'ati yotadi" deb ta'kidlaydi. Eduard Sepir va Frans Boasning g'oyalari asosida Bendjamen li Uorf quyidagi to'xtamga keladi: "Til, din, e'tiqod, urf-odatlar san'atning mahsulidir". Aynan mana shu qarash etnolingvistik tadqiqotlar uchun tarixiy, diaxronik aspektda til va etnos, til va xalq madaniyatining qadimiy munosabatlarini qayta qurishda muhim ahamiyatga ega. Iogann Gotfrid Gerder etnolingvistikada ikkita yo'nalish mavjudligini ta'kidlaydi.

Jumladan: 1. Diaxronik etnolingvistika – uzoq o'tmish, xalqning etnik, moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini etnik va lingvistik bog'liqlikda tadqiq etadi. Diaxronik etnolingvistika tarixiy etnografiya, etnogenez aloqalar va xalqlarning o'zaro ta'siri tarixini dialektologiya, lingvistik geografiya, onomastika, etimologiya, tarixiy leksikologiya, qiyosiy-tarixiy va tipologik tilshunoslik kabi til fanlari etnolingvistikaning ushbu bo'limlari oldida turgan vazifalarni hal etishga yordam beradi.

2. Sinxron etnolingvistika – hozirgi milliy va ijtimoiy muammolarni til va madaniyat aloqadorligida ko'rib o'tadi [89, 8]. Sinxron etnolingvistika zamonaviy xalqlar etnografiyasini funksional stilistika, kommunikativ lingvistika, nutq nazariyasi, nutq aktlari, leksikologiya, zamonaviy tillar grammatikasi va lingvistik pragmatika bilan aloqadorlikda ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O'zbek xalq paremlarida qo'llangan ichimlik nomlarini xususiyatiga ko'ra, o'z navbatida, ikkiga ajratish mumkin:

4.1. Kayf beruvchi ichimlik nomlari.

4.2. Chanqovbosti ichimlik nomlari.

Kayf beruvchi ichimlik nomlari

Kampirning dardi – g'o'zada,

Yigitning dardi – bo'zada.

4.1.1. Bo'za – [f. tariqdan qilingan ichimlik] Oqishoq, tariq, arpa va shu kabi donlardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlik [136, 397].

Bo'za – bu so'z o'zbek tilida *bo'z* so'zidan -a qo'shimchasi bilan yasalgan ot bo'lib, "oqishoq, arpa, tariq kabi donni achitib tayyorlanadigan kayf beruvchi ichimlik" ma'nosini anglatadi; bu ichimlik oq kulrang tusga ega bo'lib, boshqa ichimliklardan quyuqlik darajasi bilan ham ajratib turadi [117, 79].

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilishicha, bu ichimlik nomi "buxsum" deb ham yuritilgan: "Buxsum – tariq, so'klardan qilingan ichimlik, bo'za, *begn* – dondan tayyorlangan ichimlik" [112, 445].

"Alisher Navoiy asarlari lug'ati"da bu spirtli ichimlik sifatida qayd etilgan: "BO'ZA – oqishoq, kurmak, juvari kabilardan qilinadigan spirtli ichimlik" [122,140]. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" lug'atida *bo'za* kayf beruvchi ichimlik sifatida O'rta Osiyoning barcha xalqlarida, jumladan, Bolqon mamlakatlari, Kavkaz, Turkmaniston, Qirg'izistonda iste'mol qilinishi haqida ma'lumot berilgan: BO'ZA – tariq, oqshoq, arpa, suli va bug'doy kabi donlardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlik. O'rta Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardan buyon bo'za tayyorlagan... Tariq dimlanib etilgach, maysalagach, o'g'irda yanchiladi, keyin xumga solib achitiladi va dokadan o'tkazilib boshqa idishga solinadi, tingach, ichishga tayyor bo'ladi. To'yimli va foydali chanqovbosar ichimlik hisoblanadi... Bolqon mamlakatlari, Kavkaz, Turkmaniston, Qirg'izistonda sanoat usulida ishlab chiqariladi va ko'p iste'mol qilinadi [129].

Internet ma'lumotlarida bu ichimlik miloddan avvalgi VIII-IX asrlarda paydo bo'lganligi va uning nomi fors, turk, mo'g'ul, ingliz, rus, rumin, Afrika tillarida ham mavjudligi qayd etilgan: "BO'ZA – qadimdan sharq xalqlarining eng sevimli ichimliklardan hisoblanadi. Manbalarda bu ichimlikning miloddan avvalgi 9000–8000 yillarda Mesopotamiyada keng tarqalgani haqida qaydlar mavjud. *Bo'za* so'zining tilimizga fors tilida "don" ma'nosini anglatuvchi "*buze*"dan o'zlashganligi aytiladi. Biroq buning aksini, turkiy tillardanforschaga o'tganligini

ta'kidlovchilar ham ko'p. Eski turkiy tilda "*buxum*" o'laroq qo'llanilgan bu ichimlik mo'g'ul tilida "*bodso*", rus tilida "*buza*", ingliz tilida "*bosa*", Afrika tillarida "*buha*" yoki "*merissa*", rumin tilida "*braga*" tarzida qo'llaniladi... [156]." Arpa, bug'doy kabi turli donlardan tayyorlanadigan nihoyatda shifobaxsh bu ichimlikning vatani O'rta Osiyo ekanligi va Onado'lga ko'chib kelgan turkiy qavmlar vositasida boshqa xalqlarga o'tgani ham tarixiy kitoblarda qayd qilingan. Yunon tarixchisi Ksenofon miloddan avvalgi 401 yil poyonida sharqiy Onado'lida ko'chmanchi turklar tomonidan tayyorlangan bo'zalar haqida atroflicha yozib qoldirgan. 1436-yilda venetsiyalik sayyoh Giosapxat Barbaro esdaliklarida Ryazan shahrida yashovchi tatarlarning sevimli ichimligi "bosoi" ekanligini yozgan. Rus harbiysi F.S.Efremov 1755-yilda Buxoro o'zbeklarining sariq bug'doydan bo'za tayyorlashlarini qayd etgan. Nemis sayyohi J.Niebuxr esa 1701-1767-yillarda Qohira, Basra va Sharqiy Onado'lini kezib chiqadi va u yerlarda qish faslida eng ko'p iste'mol qilinadigan ayronga o'xshash ichimlikning bo'za ekanligini aytib o'tadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент, 1981.92 б
2. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари.-Т., 1992. 316 б.
3. Alisher Navoiy. Туууқлар. -
4. Артеменко М., Фольклорное текстообразование и этнический менталитет //Традиционная культура. Научный альманах. 2001. №2 (4). С. 11-17.
5. Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. – М.: "Наука", 1983. – 412. С 57-58
6. Булатова Н. Д., Этнолингвистика в системе профессиональной подготовки специалистов по народной художественной культуре. Москва. 2003. 162 с.
7. Bekmatova D.A. Do'stlik hamda qarindosh- urug'chilik mavzusi bilan bog'liq turkcha maqollar semantikasi. T.,- 2012.- 47 b
8. Жўраева Б.М.Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари.- Самарқанд., 2019. –83 б